

## Beg‘ubor bolalik.

*Abdullayeva Beg‘ubor*

*Buxoro viloyati Olot tumani MMTBga qarashli*

*19-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi*

*Ona tili va Adabiyoti fani o‘qituvchisi*

Injiq ko‘chalarda shoshqaloq ohu,  
Qiyqirib raqs tushar mehrvash moh-u.  
Umrlar qanoatin qayirmoqqa shay,  
Qaldirg‘och qumrisi behisob bog‘ bu.  
Hilolsan hurliqo oysan bolalik ,  
Shirmon buloq o‘zing soysan bolalik.

Tuproq tobin olib qurilgan “Uycha,”  
Eslab entikamiz ‘Mehmon-mehmon”ni.  
Yoshlik shoir bôlib shodlikni suysa,  
Quvlik qulluqlari tanlar mezboni.  
Buyuksan beba ho boysan bolalik,  
Tiyarak tutqich bermas toysan bolalik.

Nahorda shôx shabnam kiprigida sen,  
Sanduvoch sanosin sirligida sen.

Bahor “Bekinmachoq” “Uchirma varrak”.

Vaqt soniya hisob birligida sen.

Sabrda sojida norsan bolalik,  
Qalblar aro qaynoq qorsan bolalik.

Lolalar saylida sayringni kôrdim,  
“Chillak” chorlamoqda ostonamda yur.  
“Oq terak-kôk terak” sirini sôrdim,  
Arğimchoq ipida surayyo surur.  
Sururi samimi y soysan bolalik,  
Ziyraklik ziynati boysan bolalik.

Kulgichimda kôrksan kôzlarimga nur,  
Ehtirosim ôzing ôzing chin suqsur.  
Talpinib izlarman izing kôrimas,  
Qaylarda qolding sen bolalik qurğur.  
Pushaymon yôq aslo borsan bolalik,

Shiddat shijoatga yorsan bolalik.

Bolalik alifin òrgatar menga.

Chaqqonlik chanqoġin bostirib bugun,

Tiriklik kuy chalar torsan bolalik,

Erka ertak sôylar yoshligim menga.

10.12.2024.

Bardam irodani sazosi durkun,

Abadiy yonimda borsan bolalik.

## FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: INGLIZ TILI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKA

*Iskandarova Ruxshona Otabek qizi*

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish:ingliz tili yo`nalishi*

*I-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola filologiya va tillarni o'qitish sohasida ingliz tilining zamonaviy o'qitish metodlari, pedagogik yondashuvlar va o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini tahlil qiladi. Ingliz tili nafaqat kommunikativ vosita, balki o'quvchilarning analitik fikrlash va madaniyatlararo anglashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi asbob sifatida ko'rib chiqiladi. Maqlada ingliz tilini o'qitishdagi interfaol metodlar, innovatsion pedagogik yondashuvlar, texnologiyalarning ta'lif jarayoniga integratsiyasi hamda ingliz tilining global ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, til o'rghanish jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun pedagoglar tomonidan qo'llaniladigan eng samarali metod va texnikalar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, pedagogika, o'qitish metodlari, interfaol metodlar, zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar, til o'rghanish, kognitiv rivojlanish.

Filologiya va tillarni o'qitish sohasida ingliz tili ta'lif jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilining o'rghanilishi nafaqat uni amaliy muloqotda ishlatish imkonini beradi, balki o'quvchilarning kognitiv va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu til o'rghanish jarayonida talabalarga yangi bilimlarni olish, madaniyatlararo anglashuvga erishish, shuningdek, global miqyosda hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi. Ingliz tilini o'qitish metodologiyasining zamonaviy yondashuvlari o'qituvchilarga yangi texnologiyalar va pedagogik metodlarni o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda qo'llash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ingliz tilini o'qitishda faqatgina an'anaviy uslublardan foydalanishni cheklamaydi, balki o'qitish jarayonida innovatsion